

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti

Direktor



Narimanov Abdujalil Abdusamatovich

Qishloq xo'jalik fanlari doktori

narimanov63@list.ru

(871) 264-22-30

Bog'lanish

Manzil: 111226, Toshkent v., Qibray tumani, Yuqori Yuz

Direktor: Narimanov Abdujalil Abdusamatovich

Telefon: (+998 71) 264-22-30

Faks: (+998 71) 260-23-90

Sayt: www.genetika.uz



Genetika va O'EB instituti 1997 yil 21 iyunda tashkil topgan. Genetika instituti VM ning 1992 yil 21 iyul №337-sonli qaroriga muvofiq tashkil topgan, O'zR FA Hay'atining № 4-23-sonli qaroriga muvofiq 1997 yil 13 fevraldan O'zR FA Genetika instituti va O'simliklar eksperimental biologiyasi institutini birlashtirish yo'li bilan O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti tashkil qilingan. • Qishloq xўjalik экинлари дунё kolleksiyasi genofondini xilma-xilliklarni, mahalliy sharoitlariga moslashish jihatlarini o'rganish, muhitning biotik va abiotik omillariga chidamlilarini ajratish, ekinlar yetishtirishning resurstejamkor agrotexnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy etish. • Asosiy va takroriy ekin sifatida ekish uchun tezpishar, hosildor, mahsulot sifatleri yuqori bo'lgan yangi genotip, donorlar va boshlang'ich manbalar yaratish maqsadida duragaylashda irsiylanish, o'zgaruvchanlik va shakllanish jarayonlarining genetik qonuniyatlarini aniqlash. • Genetik qonuniyatlar va morfobiologik xususiyatlarni o'rganish asosida g'o'za, donli va don-dukakli ekinlarning genetik bir xil, original, superelita va elita urug'larini olish hamda urug'larni ekishga tayyorlash, ekish, yetishtirish, yig'ish, qayta ishlash, zararsizlantirish va saqlash jarayonlarida hosildorlik va ekish sifatlarini oshirishda yangi samarador usullarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish. • Irsiylanish, o'zgaruvchanlik va morfobiologik hamda qimmatli-xo'jalik belgilarining shakllanish jarayonlarini genetik qonuniyatlarini aniqlash asosida tezpishar, hosildor, muhitning biotik va abiotik omillarga chidamli, mahsulot sifati dunyo standartlariga

javob beradigan navlarni yaratish. • Biologik aktiv biopolimerlarni sintezlovchi turli mikroorganizmlarni skrining va identifikatsiya qilish; biopolimerlar va ular asosida olingan nanobiokompozitlarning fizik-kimyoviy tavsifini o'rganish; tuproq unumdorligini oshirishda mikrob biopolimerlar asosida biokolloid-biogellarni yaratish. • O'simliklar kasalliklarining fitopatologik va molekulyar diagnostikasini olib borish hamda kasalliklardan davolashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish.